



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI

**ZAMONAVIY INNOVATSION
TADQIQOTLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
VA RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI:
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI**



**15-16-MAY
2026-YIL**



**Google
Scholar**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

**ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR
VA ISTIQBOLLAR**

*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 15-16-may)*

JIZZAX-2026

4. Vygotsky L.S. *Imagination and Creativity in Childhood*. – Moscow, 1997.
5. Deci E., Ryan R. *Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior*. – New York, 1985.
6. Karimova V. *Pedagogik mahorat asoslari*. – Toshkent, 2020.
7. Torrance E.P. *Creativity in Education*. – New York, 2006.
8. Rahmatullayeva, M. (2021). O'QUVCHI SHAXSINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(4).
9. Rahmatullayeva, M. (2021). XALQ PEDAGOGIKASIDA TA'LIM VA TARBIYA MASALARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(4).

OTA-ONALIKDA HISSIY INTELEKTNING BOLALAR RIVOJLANISHIGA TA'SIRINING NAZARIY ASOSLARI

Abdumurodova Feruza Nuriddin qizi

Annotatsiya: Maqolada ota-onalar bilan farzandlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ota-onalarning hissiy intellektining bolalar rivojlanishiga ta'sirining nazariy asoslari aytib o'tilgan. Tadqiqotda oilaviy muhitni sog'lomlashtirish, tarbiya uslublarini takomillashtirish va bolalarda xavf omillarini kamaytirishga xizmat qiluvchi chora-tadbirlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Ota-onalar, hissiy intellekt, oilaviy tarbiya, psixologik yordam, ota-ona ko'nikmalari, bola rivojlanishi.

Mamlakatimizda hozirgi kunda barcha aholining 97 foizi oilalarga birlashib yashaydi, qolgan uch foizi – ya'ni, yolg'iz qolgan keksalar, ota-onadan yetim bo'lib qolgan va Mehribonlik uylarida tarbiyalanayotganlar, boshqa yurtidan kelib vaqtinchalik O'zbekistonda istiqomat qilayotganlar ham oila a'zolari, yaqinlari, yurtdoshlari, turli davlat va nodavlat tashkilotlaridagi insonparvar odamlarning mehridan bahramand bo'lib kelishmoqda [1]. Shundan ham ko'rinib turibdiki bolalar rivojlanishiga eng katta ta'sir etib keluvchi dargoh oila va unda ishtirpok etib keluvchi insonlar ya'ni ota-ona hisoblanadi. Shu ma'noda oila – inson o'z baxti va saodati, orzu-havaslari, maqsad muddaolarini amalga oshiradigan, o'zini inson sifatida idrok etib hayot nashidasini suradigan muqaddas dargohlardan hisoblanadi [2]. Shunday qilib, biz ota-onalar har kuni namoyish etadigan emotsional intellekt ko'nikmalari va ular o'z farzandlariga o'rgatadigan emotsional intellekt ko'nikmalari o'rtasida kuchli bog'liqlik borligini aytib o'tsak xato bo'lmaydi. Shu asosida biz emotsional intellekt tushunchasiga tavsif berib o'tib ketsak ayni muddao bo'lar edi. Hissiy intellekt (EQ) - bu his-tuyg'ularni idrok etish, sharhlash, namoyish qilish, nazorat qilish va boshqalar bilan samarali va konstruktiv muloqot qilish va ular bilan aloqa qilish uchun

foydalanish qobiliyati hisoblanadi .Emotsional intellekt nazariyasi va o'z tajribamizdan kelib chiqadigan bo'lsak, ota-onalarning bolalarga emotsional intellekt ko'nikmalarini berish qobiliyati ko'pincha ota-onalar tarbiyalash jarayonida hissiy jihatdan tushkunlikka tushganda to'sqinlik qiladi. Bu o'z navbatida mikrotizimlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi, bu esa bolalarning emotsional intellekt ko'nikmalarini oshirish ehtimolini yanada to'sqinlik qiladi.

"Oila biz birinchi navbatda his-tuyg'ularni o'rganishni boshlaydigan joy", deb yozadi. Daniel Goleman, psixolog va hissiy intellekt muallifi, bu bilim sohasini chuqurroq o'rganishimizga imkon bergan ilmiy tadqiqotlar haqida batafsil ma'lumot aytib o'tgan. "Oilada biz birinchi navbatda o'zimizga qanday munosabatda bo'lishimiz, bu his-tuyg'ular haqida qanday fikr yuritishimiz, ularga qanday munosabatda bo'lishimiz kerakligini bilib olamiz. umidlarimiz va qo'rquvlarimizni tushunish va ifodalash. Ushbu hissiy ta'lim nafaqat ota-onalarning so'zlari va o'z farzandlari bilan qanday munosabatda bo'lishlarini, balki o'z ichiga oladi [3]. Hissiy intellekt – bu insonning his-tuyg'ularni tan olish, boshqa odamlarning va o'zlarining niyatlari, motivatsiyalari va istaklarini tushunish, shuningdek, amaliy muammolarni hal qilish uchun o'z his-tuyg'ularini va boshqa odamlarning his-tuyg'ularini boshqarish qobiliyatining yig'indisi hisoblanadi [4]. "Emotsional intellekt g'oyasi, bugungi kunda mavjud bo'lganidek, Edvard Torndayk, Joy Gilford va Xans Eysenk kabi mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy intellekt tushunchasidan kelib chiqqan. Kognitiv fanning rivojlanishi bilan ma'lum bir vaqtda intellektning axborot, "kompyuter" modellariga juda ko'p e'tibor qaratildi va hech bo'lmaganda G'arb psixologiyasida fikrlashning affektiv komponenti orqa fonga tushib qolgan ekanligini sezishimiz mumkin"[5]. Yuqoridagi fikrlardan yana bir bor shunga amin bo'lishimiz mumkin ota onalar hissiy intellekti bolalar rivojlanish jarayonida juda katta ahamiyatga ega. Qachonki ota ona yaxshi kayfiyatda yaxshi gap so'zlar bilan kunni boshlar ekan bolalar ham ulardan o'rnak iolgan holda o'z kunlarini yaxshi kayfiyat bilan boshlashadi. Bu esa o'z navbatida ular komil inson bo'lib shakllanishida juda katta rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ismoiljonov L., Tilovov J. (2023). Bolalar psixologiyasidagi o'zgarishlar. Science and Education (maqola).
2. Shamrin, M.Yu. (2015). Administrativno-pravovoy status Upolnomochenogo po pravom rebenka: istoriko-teoreticheskiy aspekt (pod red. d.yu.n., prof. D.K. Nechevina). Tula: Izd-vo TulGU.
3. Andreyeva I.N., Yakovleva Ye.L. (2019). Emotsional kompetentnost pedagoga sifatida ta'lim jarayonining samaradorligi omili. Pedagogika, 5, 45–52.
4. Yuldashev Sh. (2017). Emotsional intellekt va tarbiyaviy omillar. — Toshkent: Fan.